

## IJTIMOYIY INFRATUZILMA OB'EKTLARINING OILADA SOG'LOM MA'NAVYI MUHITNI BARQARORLASHTIRISHDAGI ROLI

*Davronova Dildora Saidovna,*

*O'zbekiston davlat jaʼhon tillari universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsenti,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)*

*Mazkur maqolada ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishdagi roli, oilada ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan turli hil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rni va ahamiyatini oshirish, albatta, yosqlarimizning qalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashmoqlik bugungi ijtimoiy hayotimizning asosiga aylanayotganligi atroflicha ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: ijtimoiy infratuzilma, ma'naviyat, oila, xotin-qizlar, ta'lim, tarbiya, qadriyat, urf-odat, madaniyat, sog'lom tafakkur, ijtimoiy burch, psixologik iqlim, milliy mentalitet, g'o'ya, mafkura, jismonan sog'lom, ma'naviy etuk.*

## РОЛЬ ОБЪЕКТОВ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПОДДЕРЖАНИИ ЗДОРОВОЙ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В СЕМЬЕ

*Давронова Дилдора Саидовна,*

*Доцент кафедры «Педагогика и психологии» Узбекского государственного университета мировых языков, Доктор философии по педагогическим наукам (доктор философии)*

*В данной статье рассматривается роль объектов социальной инфраструктуры в стабилизации здоровой духовной среды в семье, повсеместное определение духовной среды в семье, повышение роли и значения семьи в противодействии различным вредным воздействиям, которые совершенно чужды нашему национальному менталитету. Конечно, борьба за сердце и разум нашей молодежи, здоровое мышление становится сегодня основой нашей общественной жизни.*

*Ключевые слова: социальная инфраструктура, духовность, семья, женщины, образование, воспитание, ценности, традиции, культура, здоровое мышление, социальный долг, психологический климат, национальный менталитет, идея, идеология, физически здоровый, духовно зрелый.*

## THE ROLE OF SOCIAL INFRASTRUCTURE OBJECTS IN MAINTAINING A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY

*Davronova Dildora Saidovna,*

*Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages. Doctor of Philosophy in Educational Sciences (Doctor of Philosophy)*

*This article examines the role of social infrastructure in stabilizing a healthy spiritual environment in the family, the widespread definition of the spiritual environment in the family, increasing the role and importance of the family in counteracting various harmful influences that are completely alien to our national mentality. Of course, the fight for the hearts and minds of our youth, healthy thinking is becoming the basis of our social life today.*

*Keywords: social infrastructure, spirituality, family, women, education, upbringing, values, traditions, culture, healthy thinking, social duty, psychological climate, national mentality, idea, ideology, physically healthy, spiritually mature.*

*Kirish. Bugungi kunda oilada milliy tarbiyani takomillashtirish, yosqlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalarni mustaxkam bo'lib shakllanishida moddiy va ma'naviy ko'maklashish, oilaviy ajrimlarni oldini olishga oid talaygina fikrlar, ilmiy yondashuvlar o'rta tasqlanmoqda.*

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi 608-I-son “Oila kodeksi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni*

sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan isqlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil

31 dekabrda 1059-sonli qarori "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish shora-tadbirlar to'g'risida"gi, Qarori va tegisqli konuniy huquqiy xujjatlarda oilaning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, uning azaliy qadriyatlarini asrab – avaylash va mustaxkamlash zamirida jamiyatning ma'naviy takomligiga erishish masalalariga alohida urg'u berib o'tilgan.

Xaqiqatdan ham oilada ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan turli hil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rni va ahamiyatini oshirish, albatta, yosqlarimizning kalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashmoqlik bugungi ijtimoiy xayotimizning asosiga aylanmoqda.

Adabiyotlar taqlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 mart 2022 yildagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir isqlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, borasida amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalisqlar sifatida quyidagilar e'tirof etib o'tilgan: [9]

-mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan konunchilik normativ – huquqiy bazani yaratish va uni takomillashtirish, oilada konun ustuvorligini ta'minlash;

-oilalarni shu jumladan yosh oilalarni ma'naviy barqarorligini ta'minlash;

-mahalla instituti, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda shakllantirishdagi ta'sirini kuchaytirish:

-jamiyatdagi barcha institutlarning (ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining) diqqat e'tiborini oilalar mustaxkamligini ta'minlashga yo'naltirish;

-“Sog'lom ona - sog'lom farzand” tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

-jismonan sog'lom, ma'naviy etuk va xar tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila instituti, fuqoralik jamiyati institutlarining ta'lim va tarbiya muassasalari bilan o'zaro hamjihatligi mexanizmini mustaxkamlash, ularning yaqin va samarali, uzviy va uzluksiz amaliy hamkorligini ta'minlash.

Muhokama. Yukorida kayd etib o'tilgan vazifalar ijrosini ta'minlash mazmuni quyidagilarni o'z ichiga kamrab oladi:

-milliy mentalitet, an'analar, urf – odatlar, xalqaro tajribani inobatga olgan holda oila konunchiligini takomillashtirish;

-yosqlarni oilaviy xayotga tayyorlash, yosh oilalarni mustaxkam bo'lib shakllanishida moddiy va ma'naviy ko'maklashish;

- umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ'ib etish orqali oilada ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, oilalardagi sog'lom va ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash;

-oilada ma'naviy va jismonan sog'lom avlodni tug'ilishi hamda tarbiyalanishida ko'maklashish;

-oilada imkoniyati cheklangan, ijtimoiy huquqiy xatar guruh bolalarning bo'lmasligini oldini olish;

-turli noaxloqiy hatti-xarakatlar, illatlarning oilada bo'lmasligini ta'minlash;

-mahalla va "Oqila ayollar" ta'lim muassasalari hamda keng jamoatchilikning oilalarni mustaxkamligini ta'minlashdagi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

-oilada farzand tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish;

Shu o'rinda alohida e'tirof etib o'tish joizki, ijtimoiy infratuzilma axolining faravonligini oshirish, kishilar mehnat sharoiti va turmush tarzini yaxshilash bilan bog'liq muhim ijtimoiy vazifalarni hal etar ekan, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini kondirilishini ta'minlaydi, mamlakat yuksak iqtisodiy rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. [10]

Oilada ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga ta'sir o'tkazuvchi ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga: maktabgacha ta'lim tashkilotlari umumta'lim, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, sog'liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar, Oliy ta'lim muassasalari, sportni rivojlantirish ob'ektlari kiradi. Mazkur ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari integrativ hamkorligida oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ'ib etish orqali oilalardagi sog'lom va ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Ba'zan shunday savol tug'iladi: yosqlar muammolari bilan butun bir tizim shug'ullanmoqda, lekin ba'zan ularning yovuz niyatli tuzog'iga tushib kolayotganligiga sabab nima? Sabab bitta:

ayrim yosqlarimiz ongida ma'naviy bo'sqliqning mavjudligi, yosh oilalarning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda keksa avlod, namunali oilalar tajribasidan unumli foydalanish, vorisiylikni ta'minlash masalalari e'tibordan chetda qolayotgani, yosqlarning qiziquvchanligi va beqarorligi.

“Yovuz niyatli”lar esa yosqlarning ushbu xislati hamda ojizligidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinishmoqda. Biroq biz bu o'rinda yosqlar va barchaga bitta «qurol» bermog'imiz zarur, bu g'oyaviy etuklikdir. G'oyaviy etuklik ma'naviy boylikning debochasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga etishmoq uchun avvalo:

- oila tarbiyasida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlarini keng safarbar etish (seminar, videokonferençiya, badiiy – publiçistik dasturlar namoyish etish, ko'chma teatrlar tashkil etish, ko'rgazmali targ'ibotlar, veb-resurslar, media – oromgoqlar, tok-shoular, ma'naviy –ma'rifiy, ilmiy ommabop, badiiy va hujjatli filmlardan foydalanish va b.q.);

- notinch, noto'liq, ijtimoiy-huquqiy hatar guruh oilalarda ta'lim va tarbiyaviy isqlar samaradorligini oshirish;

- oila a'zolarini ommaviy jismoniy tarbiya isqlariga keng jalb etish orqali ularni jismonan kamolga etkazish;

- oilada bolalarning bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida qiziqisqlari bo'yicha maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, markazlar, klublar, to'garaklar, oromgoqlar va boshqalar orqali ko'rik tanlovlar, media festevallar, media – lagerlar, ijtimoiy teleradio roliklar, plakatlar va boshqalardan keng foydalanish;

- oila, onalik va bolalik masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot isqlarini olib borish, ushbu masalaning ilmiy - metodik bazasini yaratish va takomillashtirish;

- yosh oilalarning mustaxkamligini ta'minlashda keksa avlod, namunali oilalar tajribasidan unumli foydalanish, vorisiylikni ta'minlash;

- oilada tolerantlik tafakkurini shakllantirish va b.q.

Alohida e'tirof etib o'tish joizki, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishdagi rolini kuchaytirishda oila a'zolari o'rtasida sog'lom tafakkur, o'z-o'ziga ishonch hissini uyg'otish kerak. O'ziga ishongan kishida yaxshilikka intilish va yomonlikni rad etish, unga qarshi kurashish tuyg'usi paydo bo'ladi. Ayna shu tuyg'u oilada sog'lom tafakkurni shakllantirishga asqotadi. Insonlarga, davlatga, jamiyatga va kelajagiga bo'lgan ulkan mehrni uyg'otadi. Shu ma'noda mafkuraviy g'animlar bilan g'oyaviy kurashga kirishmoq ishtiyoqi shakllanadi. Ikkinchi sabab: globallashuv davrida axborot xurujlarining yashin tezligidek kirib kelishidir. Tan olish kerak, bugun jaxon yagona axborot maydoniga aylanib ulgurdi. Istaymizmi-yo'qmi biz bu jarayonning faol ishtirokchilari sifatida xar bir voqea-hodisani kuzatib borish imkoniga egamiz. Afsuski, axborot xar doim ham ezgulikka, bunyodkor g'oyalarga xizmat qilayotgani yo'q. Ba'zan ana shu vosita muayyan vayronkor siyosiy kucqlar, jinoyatchilar, terrorchilar qo'lidagi qurolga aylanib, ayniqsa, yosqlar ongi va qalbini nishonga olmoqdaki, undan butunlay himoyalanih imkoniyatlari tobora kamayib bormokda.

Shuning uchun ham ko'plab mamlakatlar o'z manfaatlariga zid tarzdgagi shu kabi axborotlarga nisbatan axolida immunitet hosil qilish maqsadida OAVning ta'sir kuchini to'g'ri o'zanga solish yo'lini tanlamoqdalar.

Shu nuqtai nazardan yondashganda yosqlar tarbiyasida jamiyatning xar bir a'zosi (barcha ijtimoiy ob'ektlar) o'z mas'uliyatini oshirishga zaruriyat ham bor. Chunki, yosqlarning qalbi, ongi, tafakkuri sog'lom g'oyalar asosida shakllanishi uchun xar bir shaxs mas'uldir. Yosqlarning bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganligi xar bir ota-ona, mahalla ahli, o'qituvchi-pedagogning e'tiborida bo'lishi zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Buning uchun, ayniqsa mahalla (qisqloq) fuqarolarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maslahatchilari imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Aksariyat yosqlarning tarbiyasi oiladan, qolaversa, u tug'ilib o'sgan mahalladan bosqlanadi. Shunday ekan, mazkur masalalarga nihoyatda jiddiy va e'tibor bilan yondashishni bugungi adolatli siyosat barchadan talab qilayotganligi tabiiy.

Alohida qayd etib lozimki, mahalla tizimida kreativ yondashuv asosida oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, xotin-qizlarni innovatsion potentsiali, liderlik xususiyatlarini shakllantirish kabi muhim masalalarga nazariy va amaliy jihatdan echim topish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalla va oila ma'naviy kadriyatlarini shakllantirishda, oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda, milliy urf-odat va an'analarni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan etuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda muhim o'rin egallab keladi. Shu sababli ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash mahalla, oila, davlat va jamiyatning muhim muhtarak vazifalaridandir. [6]

Xaqiqatdan ham o'zbek xalqi xayotida mahalla tarbiya maskani hisoblanadi. Oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda, jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratishda xotin-qizlarning faolligini qo'llab-quvvatlash, farzand tarbiyasi, oila, xotin-qizlar ma'naviyatini yuksaltirishda jamoatchilikka, eng avvalo, yosqlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan obro'-e'tiborli va katta xayotiy tajribaga ega bo'lgan, faol va tashabbuskor ayollarning sa'y-xarakatlarini birlashtirish uchun o'zaro alokador hamkor tashkilotlar bilan maqsadli tadbirlar tashkil etish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishdagi rolini kuchaytirishda mahalla va guzarlar kesimida oilalar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish, mushoiralikka ijodkorlikka qiziqqan namunali oilalar bilan "Baxru baytlar" o'tkazish, oilalar orasidagi o'zaro ilmiy, ijodiy, demokratik munosabatdan tarkib topgan psixologik muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar yon atrofimizda sodir bo'layotgan voqealar, dunyoda kechayotgan globallashev jarayonlari targ'ibot-tashviqot isqlarini yangi bosqichga ko'tarishni talab etayotgani hech kimga sir emas. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqib oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda davlat va nodavlat tashkilotlar "Ma'rifatshilar", "Faylasuflar", "Tarixchilar" jamiyatlari, "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Oltin meros" jamg'armalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari va ta'lim tarbiya muassasalari ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot yo'nalishidagi imkon va salohiyatlarini birlashtirish, faoliyatlarini muvofiqlashtirish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi 608-I-son «Oila kodeksi». [www// lex. Uz](http://www.lex.uz);
2. Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat xayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-5020-son Qarori. [www// lex. Uz](http://www.lex.uz);
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 mart 2022 yildagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir isqlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. [www// lex. Uz](http://www.lex.uz);
4. Musurmonova O. Farzandlarimga nasihatlar. Toshkent. Yosqlar nashriyot uyi, 2020, -186 bet
5. Ismoilova Z.K. Milliy g'oya va ma'naviy – axloqiy tarbiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2007. - 71 b
6. Jamoldinova O., Narbaeva T. Yosqlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy loyihalarning ahamiyati. Yosqlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Ziyo, 2012. - B.107-109.
7. "Mahalla ziyesi" respublika o'quv uslubiy markazi. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya. Ommabop risola. – T.: 2015 y. – 72 b.
8. Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni: Fal. fan. nom. ... dis. avtoref. –T.: 2006. – 23 b.
9. <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>
10. <https://arxiv.uz/uz/documents>